

## O`QUVCHILARDA NUTQIY MALAKANI SHAKLLANTIRISH KO`NIKMALARI

*Sirdaryo viloyati Boyovut tumani 38-umumiy orta ta'lim maktabining  
ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi  
Jonikulova Nodira Abduganiyevna*

***Annotatsiya:** Maqolada maktab o'quvchilarida ona tili fanini o'qitishda nutqni o'stirish bo'yicha malaka talablariga to'xtalib o'tilgan bo'lib, bunda o'yinlar va har hil metodlardan foydalanish bo'yicha ma'lumotlar berilgan.*

***Kalit so'zlar:** ona tili, adabiyot, malaka, ta'lim nutqiy madaniyat, ta'lim texnologiyasi.*

O`quvchilarning nutq madaniyatini shakllantirish,so`z boyligini oshirish,eng asosiysi, mazmunli va yaxshi gapirishga o`rgatish hisoblanadi. Fransuz olimi Fozev Reman qayd qilganidek:”Yaxshi gapirish bu-- ovoz chiqarib turib o`ylash demakdir”. Demak, biz ustozlar zimmasidagi vazifa yosh avlodning nutqiy madaniyatini shakllantirish,ularni yaxshi gapirish,to`g`ri o`ylash, fikrlashga o`rgatish. Ushbu vazifani muvaffaqiyatli hal etish uchun tarbiya jarayonida zamonaviy ta`lim texnologiyalaridan foydalanish lozim. Bugun o`qituvchi tayyor elektron resurslar yordamida dars o`tish bilan chegaralanmasdan, balki zamonaviy texnologiyalar imkoniyatlaridan samarali foydalanishi kerak. O`quvchi nutqining tinglovchi uchun tushunarli,ta`sirchan bo`lishi uchun, avvalo, gap tuzayotganda qo`shimchalarni to`g`ri qo`llash muhim ahamiyatga ega. Buning uchun darslarda “Xatosini top” o`yinidan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo`ladi. Bunda o`quvchilarga qo`shimchalari noto`g`ri qo`llanilgan kichik-kichik matnlar beriladi. O`quvchilar bunda noto`g`ri qo`llanilgan qo`shimchalarni tuzatib o`qishi lozim. Namuna:Hirot bog`larining suv beradigan Hirirud daryosi va Injil anhorlarini qirg`oqlarida za`faron yaproqlar to`kilgan Ushbu gap esa quyidagicha tuzatiladi:Hirot bog`lariga suv

beradigan Hirirud daryosi va Injil anhorining qirg`oqlariga za`faron yaproqlar to`kilgan. Shuningdek, -ga qo`shimchasining - yo`nalish,-ning qaratqich kelishigi qarashlilik ma`nisini bildiruvchi qo`shimcha ekanligi haqida,umuman, gapda qo`llangan har bir kelishik qo`shimchasining xususiyati haqida izoh berilsa,keyingal gap tuzayotganda o`quvchi ushbu xatolarga yo`l qo`ymaydi. Ona tili ta`limida “Kartochka “metodi ham juda samarali usullardan biri hisoblanadi. Bunda yozilishi qiyin bo`lgan so`zlarning qanday yozilishi va o`quvchi xotirasida saqlanib qolishi , uning lug`at boyligidan yangi so`zlar o`rin olishi uchun foydalanilsa ijobiy natijaga erishiladi. O`qituvchi dars jarayonida o`quvchilarga uchragan notanish so`zlarni yoki yozilishi qiyin bo`lgan so`zlarni o`quvchilar o`zi tayyorlab kelgan kartochkalariga yozdiradi.Masalan :xatboshi, xattot, zaxira, husnixat, zahmat, xudbexud,hassos,afzal,afv,tavfiq, Barchamizga ayonki, aksariyat hollarda o`quvchilar x va h harfli v-f harfli so`zlarni yozishda adashishadi. Ayni shu usul esa yuqoridagi muammolarga ajoyib yechim bo`lib xizmat qiladi. O`quvchiga o`z kartochkasiga yozgan so`zlar ishtirokida gaplar tuzdirilsa yanada yaxshi bo`ladi.O`quvchining yozma nutqi bilan birgalikda og`zaki nutqini ham rivojlantirgan bo`lamiz. Ushbu usulning yana bir qulay tomoni shundaki, yangi so`zlar yozilgan kartochkalarni o`quvchi o`zi bilan xohlagan joyda ,hatto yon cho`ntaklarida ham bemalol olib yura oladi.Uy yumushlarini bajarib turib ham cho`ntagidan olib . Kartochka usulidan adabiyot darsida ham foydalanilsa ijobiy natijaga erishiladi.Ayniqsa, mumtoz adabiyot bo`stonini o`rganilayotganda juda qo`l keladi. Masalan:5-sinf darsligida berilgan „Hayrat ul-abror“ asaridan olingan “ Sher bilan durroj” masalini o`rganayotganda lug`at daftardan tashqari o`quvch o`zi tayyorlagan kartochkaga quyidagicha so`zlarni yozib qo`ysa ,maqsadga muvofiq bo`ladi:durroj-kaptarning bir turi,qirg`ovul Mo`r- chumoli... O`quvchilarda nutqiy malakani rivojlantirishning yana biri o`qituvchi o`zi bilan savatchada turli xil buyumlar; o`chirg`ich, kitob, qalam, barg,gul, meva, gugurt,...kabilarni keltiradi. Ushbu narsalarni o`quvchilarga tarqatib, berilgan narsalar haqida kichik og`zaki matnlar tuzish buyuriladi. O`qituvchi o`quvchilarga matn tuzishda yordam bo`lishi uchun turli savollar bilan murojaat

etadi. Masalan: gugurt berilgan bolaga “Gugurt o`zi nima?, Undan nima maqsadda foydalanamiz? Uning zararli va foydali xususiyatlari haqida nimalar bilasiz?” Ushbu savollarga javob berish uchun ham o`quvchidan fikrlash va o`z fikrini ketma - ketlikda, to`g`ri bayon qilish talab etiladi. Bunda o`quvchida og`zaki matn tuzish malakasi shakllanishi bilan bir qatorda yuqoridagi mulohazali savollarga javob izlash orqali o`quvchilar kichik hayotiy tajribaga ham ega bo`ladilar. Ba`zan o`quvchilar orasida o`z maqsadini to`g`ri ifoda eta olmaydigan, ikki og`iz jumlni tushuntirish uchun qayerdan boshlashni bilmay gapni cho`zibb o`tirdigann o`quvchilar ham bor. Ayni shu nuqsonlarga baham berish maqsadida matnni qayta tahrirlash metodidan foydalanilsa ko`zlangan maqsadga erishiladi. Bunda o`quvchiga moslab kichik –kichik matnchalar tuzib beriladi. O`quvchi shu matn ichidan asosiy fikrni topa olishi lozim. Masalan: Ilmning foydasi shu qadar ko`pki, ta`riflagan bilan ado etish mumkin emas. Bizlarni jaholat qorong`uligidan qutqaradi. Madaniyat, insoniyat, ma`rifat, dunyosiga chiqarib, yomon fe`llardan, bema`ni ishlardan qaytaradi. Yaxshi xulq va adab sohibi qilib Allohga muhabbat va e`tiqodimizni orttiradi. Payg`ambarimiz: “Ilmga amal qiluvchilardan bo`lingiz ,naql va rivoyat qiluvchilardan bo`lmangiz”-deganlar. Demak, dastlab fikr nima haqida ekanligiga e`tabor qaratsak , bu matnda fikr ilm haqida ekan. Matndagi asosiy fikr esa: Ilmga amal qiluvchilardan bo`lingiz (7-sinf ona tili darsligi). Xuddi shu tarzda o`quvchuning o`z fikrini bayon qilishida asosiy gapni qisqa va lo`nda qilib ayta olishiga erishiladi. Mazkur mulohazalar xususida tavsiya qilinayotgan didaktik o`yinlar turlicha metodlarning zamirida o`quvchilarning nutaqiy malakasini rivojlantirish ,tilning Grammatik elementlaridan to`g`ri foydalanish , o`quvchilarda o`z shaxsi va xatti-harakatlariga ishonch hissini oshirish kabi maqsadlar nazarda tutilgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. 5-7-8-9-sinf ona tili darsligi
2. 5-sinf adabiyot darsligi